

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY NAFAQALAR TIZIMINI RIVOJLANISHI

Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

ANOTATSIYA

Maqolada mustaqillik yillaridan boshlangan pensiya islohoti va uning rivojlanish natijalarin tahlil qilinadi va tahlil asosida xulosalar beriladi. Fuqarolarning davlat byudjeti va byudjet tashqari maqsadli jamg'armalaridan oladigan ijtimoiy to'lovlari, nafaqalari va pensiyalarining fuqarolar o'rtasida tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlaydigan pensionerlarga pensiya to'liq to'lanmoqda. Oxirgi yillarda pensiya tizimida ro'y bergan shu va boshqa asosiy o'zgarishlarni ushbu maqolada sanab o'tamiz.

Kalit so'zlar: pensiya, ijtimoiy to'lovlar, nafaqalar, pensiya tizimi, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, "Ijtimoiy himoya" yagona reyestri

ANNOTATION

The article analyzed the results of the pension reform and the results of its development, which began in the years of independence, and made conclusions based on the analysis. Social payments, allowances and pensions received by the people from the state budget and budget funds are of great importance among citizens. Pensions are being paid in full to working pensioners. In this article, we list these and other major changes that have taken place in the pension system in recent years.

Keywords: pension, social payments, allowances, pension system, Off-Budget Pension Fund, single register of "Social Protection"

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы итоги пенсионной реформы и итоги ее развития, начавшиеся в годы независимости, и на основе анализа сделаны выводы. Большое значение среди граждан имеют социальные выплаты, пособия и пенсии, получаемые населением из государственного бюджета и бюджетных средств. В этой статье мы перечислим эти и другие крупные изменения, произошедшие в пенсионной системе за последние годы.

Ключевые слова: пенсия, социальные выплаты, пособия, пенсионная система, Внебюджетный пенсионный фонд, единый реестр «Соцзащиты».

KIRISH

Umumdavlat moliyasi tarkibidagi bo'g'inlar ichida davlat byudjetidan keyin hajmi va iste'molchilarni qamrab olish ko'lami hamda ijtimoiy ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan markazlashgan jamg'armalardan biri bu byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Pensiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 459-sonli qaroriga muvofiq :, asos solingan. Har bir yangi tashkil etilgan markazlashgan jamg'arma oldiga muayyan maqsad qo'yilgani bois, ushbu jamg'arma oldiga ham zarur maqsad qo'yildi. jumladan, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bosh maqsadi-davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minoti tizimida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, daromadlarga mo'ljallangan majburiy badal, yig'im va ajratmalarni to'liq yig'ilishini ta'minlash, shuningdek, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun moliyalashtirish chora-tadbirlarini o'z vaqtida va to'liqligicha ta'minlashga erishish hisoblanadi. Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi ishlab chiqqan "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiyasi" loyihasi aholi e'tiboriga havola etilganidan buyon keng muhokama qilinmoqda.

Hozirda O'zbekiston aholisining qariyb 11 foizi (3,9 mln kishi) pensiya va nafaqa oladi. Bundan 5 yil muqaddam esa pensionerlar 3 mln kishi bo'lgan.

So'nggi vaqtda pensiya va nafaqa oluvchilar soni yiliga 200-250 ming nafarga o'sib bormoqda. Ularning soni ortishi bilan pensiya tizimida ham bir qancha o'zgartirishlar qilishga ehtiyoj sezildi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodchi olimlar tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash, xususan pensiya tizimini islox qilish yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Aholini ijtimoiy himoyalashni turli iqtisodchi olimlarning qarashlari, pensiya tushunchasini nazariy asoslarini chuqur o'rganishga harakat qilamiz

Vahobov A.V va Malikov T.Slar o'zlarining moliya darsligida pensiya ta'minoti tushunchasiga alohida to'xatalib o'tib uning vazifalari va moliya sohasidagi pensiya ta'minotining o'rni va ahamiyati uning rivojlanish boshqichlarini o'rganish asosida tahlil qilib o'tganlar.[1]

T. Malikov, O. Olimjonovlar o'zlarining ilmiy tadqiqot va izlanishlari pensiya ta'minotining muhim omili bo'lgan davlat budjetining ahamiyati haqida olib borganlar va pensiya va ijtimoiy nafaqalarning rivojlanishi uchun kerakli yo'nalishlarni keltirib o'tganlar.[2]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston pensiya tizimi va amaldagi holati tahlili natijalari asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy xulosalar qilishdan iborat. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiyqisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning pensiya tizimi islox qilish bo'yicha izlanishlari, olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv asosida xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarni davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunini hayotga tatbiq etishga qaratilgan. Qayd etilgan qonunning 2- moddasida quyidagi ko'rinishdagi davlat pensiyalari zikr etilgan:

- yoshga qarab;
- nogironligi bo'yicha;
- boquvchisini yo'qotganligiga ko'ra.

1995 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1289-sonli Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonda 1996 yil 1 yanvardan boshlab, ishlayotgan, xizmat ko'rsatayotgan va ish bajarayotgan pensionerlar uchun mo'ijallangan, belgilangan pensiyaning 50 foiz to'lanishi nazarda tutilgan. Ammo, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari yoxud shularga tenglashtirilganlar, 1- 2-guruh nogironlari, Chernobil halokatini bartaraf etishda ishtirok etib, ishlayotgan pensionerlar bun dan mustasnodirlar. Ular uchun belgilangan pensiyalar to'liq 100 foiz miqdorda olinishi belgilangan.[4]

O'tgan 5 yildagi ijobiy o'zgarishlar deya quyidagilarni aytaolamiz.

Pensiyaning naqd pulda to'lash boshlanishi katta yangilik bo'ldi. 2017 yilgacha pensionerlarni qiynab kelgan muammolardan biri ularga pullar naqd shaklda berilmayotganida edi. O'sha yili 1 fevraldan boshlab mazkur masala yechim topdi – pensiya va nafaqalar istalgan shaklda, naqd yoki plastik karta orqali berila boshlandi. Bu ko'pchilik kutgan yangilik edi. “2015-2016 yillarda pensionerlarda o'z pensiya pullarini naqd shaklda olish imkoniyati bo'lmagan. Pullar faqatgina plastik kartochkaga o'tkazilardi. Chunki naqd pul masalasi dolzarb muammo edi”, – deydi Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar boshqarma boshlig'i Gulnora Murodova o'tgan davrni eslab.

Pensiya tizimidagi yana bir ijobiy o'zgarish 2019 yilda yuz berdi. Ya'ni pensiya hisoblashda ish haqiga belgilangan yuqori chegara BHMning 8 baravaridan 10 baravarga oshirildi. Buning

natijasida 531 ming nafar fuqaroning pensiya miqdori o'rtacha 65 ming so'mdan 265 ming so'mgacha oshdi.

Qolaversa, 2019 yil 1 yanvar holatiga pensiyalarni to'g'ri tayinlash va to'lash ustidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida ortiqcha pensiya to'langani aniqlangan 3 ming 770 nafar fuqaroning 6 mlrd 287 mln so'mlik qarzdorliklari qoldiqlari hisobdan chiqarildi.

Ishlovchi pensionerga qulayliklar yaratildi. Tizimdagi ijobiy o'zgarishlardan biri – 2019 yil 1 yanvardan boshlab barcha sohalarda ishlaydigan pensionerlarga pensiyalarining to'liq berilishi bo'ldi. Buning natijasida o'sha yili 83 ming nafar pensionerning oylik daromadlari o'rtacha 450 ming so'mga ko'paydi.

Bungacha (1995 yildan beri) ishlovchi pensionerlarga pensiyalarining 50 foizi to'lanar, e'tirozlar ortganidan ortib borayotgandi.

“Ishlaydigan pensionerlar 2019 yilgacha 50 foiz pensiya olardik. O'sha yildan buyog'iga oylik ham, pensiya ham to'liq berilyapti. Naqd va plastik karta orqali olish bizning xohishga ko'ra beriladi. Rosti, menga 30 yil ishlab 50 foiz pensiya olish alam qilar edi. Hozir to'liq olyapmiz”, deydi u.

2005 yilgacha bo'lgan ish stajlar hujjatsiz inobatga olinadi. 2021 yil 1 iyundan boshlab pensiyaga chiqmoqchi bo'lgan fuqaroning 2005 yilgacha ishlagan davri ish stajiga hech qanday hujjatlar talab etilmasdan inobatga olinadi. Pensiyaga chiqish uchun faqatgina pasport va so'nggi 5 yilda olgan oylik maoshlari haqida ma'lumot so'raladigan tizim joriy etildi.

“2005 yilgacha bo'lgan ish stajlarning elektron bazasi bo'lmagani uchun fuqarolardan ish haqi, staji to'g'risidagi ma'lumotlar, arxiv hujjatlari talab etilar, ularning ish stajlari to'liq inobatga olinmay kelinar edi. Natijada ovoragarchilik va e'tirozlar ko'payib bordi.

Shu paytgacha fuqarolardan pensiyaga chiqish uchun 40 dan ortiq hujjat talab qilingan. 15 ga yaqin vazirlik va idoralardan hujjat yig'ish kerak edi. Shuning asosiy qismi 2005 yilgacha bo'lgan mehnat staji bilan bog'liq bo'lardi”, – deydi jamg'arma rahbari.

“Bu yil turmush o'rtog'im pensiyaga chiqishlari uchun 8 iyul kuni hujjat topshirgandilar. Ertasiga telefonda pensiyaga chiqqanlari to'g'risida xabar keldi. Pensiya jamg'armasiga borsak pensiya daftarchasi berishdi. Hayron bo'lib qoldim. Ishongim kelmadi. Chunki men 7 yil oldin pensiyaga chiqqan edim. O'shanda soliq va boshqa tashkilotlardan ko'p hujjatlar so'rashgan, judayam ovora bo'lganman. Bu yil esa mehnat daftarchasi bilan pasport olib keldik, oxirgi 5 yildagi oylik maoshlar haqida ma'lumot olib keldik, bo'ldi. Shu bilan bir kunda pensiyaga chiqarishibdi. Oldingi ovoragarchilik hozir yo'q”, – dedi pensioner.

Ishlamaydigan fuqarolar ham pensiyaga chiqishlari mukinligi haqida.

Hozirda ishlaydigan turmush o'rtoq ishlamaydigan turmush o'rtoqi uchun oylik daromadlaridan Pensiya jamg'armasiga ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to'lashi mumkin. Mazkur to'lovlar hisobiga staj yig'ib boriladi va kelgusida pensiya ta'minoti bilan qamrab olish imkoniyati yaratiladi.

“Ba’zi erkaklar turmush o’rtog’ining ishlashini xohlamaydi. Natijada ular pensiya yoshiga yetganda ish stajiga ega bo’lmaydi va pensiya huquqidan ham mahrum bo’lishadi. Shu muammo inobatga olinib, prezident qarori bilan turmush o’rtoqlari o’z ayoli uchun oylik daromadlaridan Pensiya jamg’armasiga ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to’lash huquqi berildi. Ayollar ro’zg’or ishlari bilan band bo’laverishadi, turmush o’rtoqlari ular uchun soliq to’lashadi va kelgusida uy bekasi ham pensiya olish huquqiga ega bo’ladi”, – dedi mutaxassis. Ma’lum qilinishicha, endilikda o’zini o’zi band qilgan fuqarolar ham Pensiya jamg’armasiga ixtiyoriy ravishda soliq to’lash hisobiga o’zlariga staj yig’ib borishlari va kelgusida pensiyaga chiqishlari mumkin.

“Ko’plab yurtdoshlarimiz chet elda mehnat faoliyati yuritishadi. Ular ham ma’lum vaqt ishlab O’zbekistonga qaytishadi. Hozirda shunday vatandoshlarimizga ham pensiyaga chiqish imkoniyati yaratildi. Ya’ni xorijda olgan daromadlari hisobidan ijtimoiy soliq to’lasalar, ularga staj hisoblanadi. Pensiya yoshiga yetganda esa pensiya tayinlash huquqi beriladi”, – deya ta’kidladi Nuriddin Shadixo’jayev.

“Ijtimoiy himoya” yagona reyestri joriy etildi.

2021 yil boshidan “Ijtimoiy himoya” yagona reyestri butun respublikada yo’lga qo’yildi. Bu tizim orqali kam ta’minlangan oilalarga 3 turdagi nafaqalar elektron tartibda, inson omilisiz, avtomatik tarzda tayinlanadi.

Avvallari nafaqa olmoqchi bo’lgan arizachidan daromadlari, mol-mulki, oila a’zolari ishlaydigan joydan ma’lumotlar talab qilingan. Bundan tashqari, murojaatni ko’rib chiqish jarayoniga uzoq vaqt sarflangan.

“Ijtimoiy himoya” yagona reyestri tizimida esa fuqaro hech qanday ma’lumot yig’ishi shart emas. Faqatgina ariza bilan o’zi va oila a’zolarining pasport nusxalari (nikoh va tug’ilganlik to’g’risida guvohnomalar) taqdim etiladi.

Ariza mahallaga beriladi. Reyestr orqali elektron tarzda nafaqalar kimga tayinlangani yoki rad etilgani, rad etilishi sabablarini ham ko’rish mumkin.

Pensiya ta’minoti o’z ahamiyatiga ko’ra mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida va davlat moliya-byudjet tizimida katta o’rin tutadi.

Ushbu tizim mehnat bozori holati va soliq sohasi, shuningdek, mamlakatimizdagi demografik vaziyat bilan chambarchas bog’liq. Shu bois, pensiya tizimi joriy munosabatlarni hisobga olgan holda iqtisodiyotga nisbatan yuklamani kamaytirishga xizmat qilishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqa yoshidagi insonlarning turmush darajasini qo’llab-quvvatlash, fuqarolarning pensiya olishga bo’lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishning kafolatlarini kuchaytirish muhim vazifa. Uning ahamiyati, ayniqsa, butun dunyoda davom etayotgan pandemiya davrida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz 2022-yil 9-fevralda imzolagan “Fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun ayni

maqsadga qaratilgan. Qonun bilan boshqa hujjatlar qatorida “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunga ham o’zgartish va qo’shimchalar kiritilmoqda.

Yangi qonun bilan kiritilayotgan o’zgartishlarning aksariyati jamiyatning ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlari, avvalo, ayollar huquq va manfaatlari himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan. Jumladan, endilikda bolani parvarishlash ta’tillarida bo’lish vaqtining hammasi jamlanganda ko’pi bilan 6 yillik davrni ish stajiga qo’shib hisoblash ko’zda tutilmoqda. Ilgari bu davr 3 yil edi. Qonunchilik hujjatlarini o’zaro muvofiqlashtirish maqsadida ushbu norma bir vaqtning o’zida Mehnat kodeksida ham o’z aksini topmoqda. Bu juda muhim. Chunki ona va bola salomatligi va xavfsizligi nafaqat oila, balki butun jamiyatga daxldordir.

Masalaning naqadar dolzarbligini rivojlangan mamlakatlarda XIX asrdayoq tushunishgan. Xususan, bola parvarishi ta’tilini 1883-yilda qonuniylashtirgan birinchi mamlakat Germaniya bo’ldi. Uning ortidan Shvetsiya 1891-yilda va Fransiya 1928-yilda xuddi shunday chorani amalga oshirdi. 1919-yilda esa Xalqaro mehnat tashkiloti onalik va bolalikni himoya qilish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqib, qabul qildi. Ular uchta fundamental tamoyil – bola parvarishi ta’tili, pul nafaqasi va ish o’rmini saqlab qolish prinsiplaridan kelib chiqadi.

Aynan shu qoidalar ona va bola xavfsizligini to’liq ta’minlash, demakki, jamiyat manfaatini himoyalashga xizmat qiladi. Onalar tug’ruqdan keyin salomatligini to’liq tiklashi uchun ham vaqt va mablag’ kerak. Demak, yuqoridagi kafolatlar ta’minlansa, ular tezroq ishga qaytishlari mumkin, bu esa iqtisodiyotga foyda. Qolaversa, oilalar o’zining davlat himoyasida ekanini bilsa, tug’ilish doimo kerakli darajada bo’ladi, demografik muammolarga chek qo’yiladi.

Shu jihatdan, yangi qonun bilan kiritilayotgan o’zgartishlar, ya’ni mamlakatimizda bolani parvarishlash ta’tillarida bo’lish vaqtining 6 yillik davrini ish stajiga qo’shib hisoblash ayollar uchun har tomonlama qo’shimcha rag’bat va qo’llab-quvvatlash bo’ladi.

Qonunda birinchi guruh nogironligi bo’lgan shaxsga yoki 18 yoshgacha bo’lgan (oldin 16 yosh edi) nogironligi bor bolaga, shuningdek (davolash muassasasining xulosasiga ko’ra), o’zgalarning parvarishiga muhtoj bo’lgan 80 yoshga to’lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt ish stajiga qo’shib hisoblanishi belgilanmoqda. Bu ham xotin-qizlar manfaatlarini ta’minlash yo’lida qo’yilgan muhim qadam. Chunki oilalarda nogironlar yoki katta yoshdagi insonlarga asosan ayollar qaraydi. Munis o’zbek ayollari yaqinlariga bo’lgan mehri tufayli ko’p hollarda shaxsiy manfaat va intilishlaridan voz kechadi. Onalik, kezi kelganda kelinlik vazifasini bajarib, umrini nogiron farzandi yoki oiladagi keksalarni parvarishlash bilan o’tkazgan opa-singillarimiz kam emas. Qonunga kiritilayotgan ushbu o’zgartish esa ularning o’zlari keksayganda pensiya olishlari, demakki, qilgan mehnatlaridan oz bo’lsa-da, moddiy manfaat ko’rishlariga yo’l ochadi.

Qonun bilan kiritilayotgan yana bir muhim normada endilikda boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi to’lovlari marhumning qaramog’idagi farzandlariga, ular 18 yoshgacha, agar umumiy o’rta ta’lim muassasasi, akademik litsey va oliy ta’lim muassasasida o’qiyotgan bo’lsa, 23 yoshga to’lgunga qadar to’lanishi nazarda tutilmoqda.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi qaramog'idagi shaxslarga ular 16 yoshga to'lgunga qadar, o'quvchi bo'lsa, 18 yoshga to'lgunga qadar to'lanadi. Vaholanki, bola 18 yoshga to'lganda ko'pincha oliy o'quv yurtiga o'qishga kiradi. Tabiiyki, u o'qish bilan band bo'lgan davrda ta'minotsiz qolib ketishi mumkin emas.

MDH mamlakatlarining deyarli barchasida boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi 18 yoshgacha, o'qisa, 23 yoshgacha to'lanadi. Endi bu amaliyot yurtimizda ham joriy etilmoqda. Bu esa qanchadan-qancha yoshlarga hayotda munosib o'rnini topish imkonini beradi.

Pensiya ta'minoti tizimi har bir zamonaviy davlat aholisi ijtimoiy himoyasining muhim qismi, jamiyat rivojining bazaviy va eng zarur kafolatlaridan biridir. Uni isloh qilish va rivojlantirish uzluksiz va tinimsiz jarayon. Chunki bu tizimni doimiy takomillashtirish nafaqat inson huquqlarini ta'minlash, balki, avvalo, iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois, ushbu qonunning qabul qilinishi davlatimizning ijtimoiy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.[1]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, Respublika pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirilishi yanada mukammallashib borishi iqtisodiyotga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar demografik qarish jarayonlari boshdan kechirmoqdalar. Aholi tarkibida keksa yoshdagilar ulushining ortib ketishi pensiya ta'minot tizimi xarajatlarini oshirib daromadlarini pasayishiga olib keladi. Bunday sharoitda pensiya ta'minoti tizimida islohotlar olib borilishi zarurati paydo bo'ladi. Ushbu vaziyatda pensiyani isloh etish modellari ham yaratilgan bo'lib demografik qarish jarayonlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning ma'lum qismi ushbu modellar orqali islohotlarni amalga oshirmoqdalar.

Yuqorida keltirilganidek Respublikamiz pensiya ta'minoti tizimida ham muammolar mavjud. O'zbekistonda hali demografik qarish jarayoni kuzatilmagan bo'lsada, yaqin kelajakda umr davomiyligining oshishi pensiya tizimida islohotlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada o'rganilgan pensiya tizimining rivojlanish bosqichlari va amalga oshirilgan islohotlar yaxshi olib borilmoqda va bunda to'xtab qolmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasining qonuni, 26 avgust 2004 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: O'zbekiston, 2023.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, -2017. -56 b

4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (Toshkent TFI Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.
5. Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. – 800 b.
6. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi: O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.
7. Журавлева Л.В. Бюджетная политика как метод государственного регулирования. М.: Дело ЛТД, 2001.
8. Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. – 800 b.

INTERNET RESURLARI

1. <https://daryo.uz/2018/05/11/davlat-pensiya-taminoti-tizimini-isloh-etish-konsepsiyasi-pensiya-yoshi-ozgaradimi-yoki>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-pensiya-ta-minoti-tizimini-isloh-etishning-xorij-tajribasi-kanada-pensiya-tizimi-misolida>
3. <https://kun.uz/news/2021/08/01/pensiya-tizimi-yangi-davrda-nimalar-ozgardi#!>